

XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH

Mardanov B.B

I.f.d.dots

Kuliyeva Sitora Munisovna

*“Zarmed” Universiteti Iqtisod yo‘nalishi 1-kurs magistranti. (+99897 924 45 83,
kuliyevasitora@icloud.com)*

“O‘zbekiston taraqqiyoti inson manfaatlari va ularning hayot sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan bo‘lishi shart. Kambag‘allikni kamaytirish mamlakatimizning asosiy strategik vazifalaridan biri hisoblanadi”.

Mirziyoyev Sh.M

Annotatsiya: *Maqolada xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi mamlakatdagi kambag‘allikni kamaytirishda tutgan o‘rni batafsil tahlil qilinadi. Xizmat ko‘rsatish sektori ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda muhim omil sifatida ko‘rib chiqilib, uning bandlik, daromadlarni oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishdagi roli yoritiladi. Maqolada xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari, davlat siyosati va kambag‘allikni qisqartirishga ta’siri misollar bilan tushuntiriladi.*

Kalit so‘zlar: *xizmat ko‘rsatish, kambag‘allik, iqtisodiy rivojlanish, bandlik, innovatsiya, davlat siyosati.*

Аннотация: *В статье подробно анализируется роль развития сферы услуг в сокращении бедности в стране. Сектор услуг рассматривается как важный фактор социально-экономического развития, а также его влияние на занятость, повышение доходов и внедрение инновационных подходов. В статье объясняются стратегические направления развития сферы услуг, государственная политика и её влияние на сокращение бедности с приведением примеров.*

Ключевые слова: *услуги, бедность, экономическое развитие, занятость, инновации, государственная политика.*

Abstract: *This article provides a detailed analysis of the role of service sector development in reducing poverty in the country. The service sector is viewed as a vital factor in socio-economic development, including its impact on employment, income enhancement, and implementation of innovative approaches. The article explains strategic directions for developing the service sector, government policies, and their effects on poverty reduction with examples.*

Keywords: *service sector, poverty, economic development, employment, innovation, government policy.*

KIRISH

“O‘zbekiston taraqqiyoti inson manfaatlari va ularning hayot sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan bo‘lishi shart. Kambag‘allikni kamaytirish mamlakatimizning asosiy strategik vazifalaridan biri hisoblanadi” (Sh.Mirziyoyev, 2021) [3:20]. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev, ushbu fikrlari orqali davlat siyosatining markazida inson, ya‘ni fuqarolarning farovonligi va manfaatlari turishi kerakligini ta‘kidlaydi. Ijtimoiy adolat va iqtisodiy rivojlanish o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. Bu yondashuv O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning ijtimoiy yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Taraqqiyot raqamlar emas, balki inson hayotida sezilarli o‘zgarishlar bilan baholanishi kerakligi anglatiladi. Shu nuqtai nazardan, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish — kambag‘allikni kamaytirish, yangi imkoniyatlar yaratish va fuqarolar turmush darajasini oshirishning muhim vositasi sifatida talqin qilinadi.

Bugungi kunda xizmat ko‘rsatish sohasi mamlakat iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylangan va uning rivojlanishi kambag‘allikni kamaytirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Xizmat ko‘rsatish nafaqat ish o‘rinlari yaratishda, balki daromadlar darajasini oshirishda, aholining hayot sifatini yaxshilashda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Kambag‘allikni qisqartirish muammosi faqatgina iqtisodiy o‘sish bilan hal qilinmaydi, balki ijtimoiy siyosat va sohalararo integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi. Aynan shu nuqtai nazardan xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlovchi asosiy omil sifatida e‘tiborga olinmoqda. [1:20]

1. Xizmat ko‘rsatish sohasi va uning iqtisodiy ahamiyati

Xizmat ko‘rsatish sohasi — xizmat ko‘rsatish sohasi inson kapitalidan samarali foydalanishga asoslangan bo‘lib, u zamonaviy iqtisodiy tizimlarda innovatsiyalar generatori hisoblanadi. [2:47]. Ushbu soha savdo, turizm, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, moliya, transport va boshqa ko‘plab tarmoqlarni o‘z ichiga oladi. XXI asr iqtisodiyoti xizmat ko‘rsatish sektorining ulushi ortib borayotgan davrga to‘g‘ri keladi.

Jahon amaliyotida xizmat ko‘rsatish sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YaIM) katta qismiga ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish sohasi YaIM ning 70% dan oshig‘ini tashkil qilishi kuzatiladi. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich yanada oshib bormoqda. [2:45].

Xizmat ko‘rsatish sohasi ish bilan bandlikni oshirish uchun muhim yo‘nalish bo‘lib, ayniqsa qishloq joylarda va kam rivojlangan hududlarda aholi uchun yangi ish o‘rinlari yaratadi. Bu o‘z navbatida kambag‘allikni kamaytirishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi.

2. Kambag‘allik va uning ijtimoiy-iqtisodiy ta‘siri

Kambag‘allik — aholining asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondira olmasligi, ularning ijtimoiy himoyasiz qolishi demakdir. Bu muammo nafaqat individual

darajada, balki butun jamiyat barqarorligiga xavf soladi. Kambag'allikni kamaytirish uchun iqtisodiy o'sish, bandlikni oshirish, ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish zarur.

Xizmat ko'rsatish sohasi kambag'allikni qisqartirishda to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalari aholining salomatligi va malakasini oshiradi, bu esa uzoq muddatda ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Savdo va turizm esa aholi uchun qo'shimcha daromad manbai hisoblanadi. [3:90].

3. Xizmat ko'rsatish sohasining kambag'allikni qisqartirishdagi strategik yo'nalishlari.

3.1 Bandlikni oshirish.

Xizmat ko'rsatish sohasi kengayishi yangi ish o'rinlari yaratadi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish orqali ko'plab kambag'allar o'z daromad manbaiga ega bo'lishadi. Raqamli xizmatlar va elektron savdo sektorlarining rivojlanishi bilan yangi kasblar va ijtimoiy tarmoqlar paydo bo'lmoqda. [4:102].

3.2 Aholining xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish.

Sifatli ta'lim, sog'liqni saqlash, transport va kommunikatsiya xizmatlari aholi farovonligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga mo'ljallangan xizmatlar kambag'allikni kamaytirishda samarali bo'ladi.

3.3 Innovatsiyalarni joriy etish.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida xizmat ko'rsatish sifati oshiriladi. Mobil ilovalar, onlayn platformalar va avtomatlashtirish orqali xizmatlar kengroq qamrovga ega bo'ladi, bu esa yangi daromad manbalarini yaratadi. [3:115].

Qishloq joylarida innovatsion kommunal xizmatlarni yaratishda raqamli video devor (ulkan xarita) asosiy elementlari ishlab chiqilgan, bu esa ma'lumotlar bazasi serveri, veb-server, SMS-shlyuz va mobil telefonlar orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, "Smart kommunal xizmat ko'rsatish" markazlarining elektron bazasining funksional tuzilmasi va uning funksional talablari ishlab chiqilgan [1:42].

4. Davlat siyosati va xizmat ko'rsatish sohasi.

O'zbekiston hukumati xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish uchun keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. "Yoshlar daftari", "Mahalla tizimi" kabi dasturlar orqali kambag'al va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga xizmatlar yetkazib berilmoqda. Shu bilan birga, soliq imtiyozlari, investitsiya loyihalari va trening dasturlari orqali kichik biznes qo'llab-quvvatlanmoqda [1: 45].

Davlat tomonidan xizmat ko'rsatish sohasiga e'tibor berilishi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda va kambag'allikni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.

5. Xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining amaliy misollari

Misol uchun, turizm sohasi O'zbekistonda iqtisodiyotning rivojlanishida va kambag'allikni kamaytirishda muhim rol o'ynamoqda. Qishloq joylarda turizmni rivojlantirish orqali mahalliy aholining daromadi oshmoqda, yangi ish o'rinlari paydo bo'lmoqda [2:58].

Shuningdek, elektron tijoratning kengayishi kichik tadbirkorlar va dehqonchilik mahsulotlarini bozorga chiqarish imkoniyatini yaratmoqda, bu esa qishloq joylarda kambag'allikni kamaytirishga yordam bermoqda.

Shu o'rinda "Nega xizmat ko'rsatish sohasi samarali?" degan savol tug'ilishi tabiiy.

Unga javob esa quyidagicha:

1. Tez ish o'rinlari yaratadi: xizmat ko'rsatish sohasi — bu kafelar, go'zallik salonlari, transport, savdo, turizm, IT, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi tarmoqlarni o'z ichiga oladi; bu sohalar kapital va uskunalarga kamroq ehtiyoj sezadi, ya'ni kam mablag' bilan ish boshlash mumkin; shuning uchun ham xizmat ko'rsatish sektori tezkor va keng ko'lamli ish o'rinlari yaratish imkoniyatiga ega. [5:27].

2. Ko'nikmalar tez o'zlashtiriladi: bu sohadagi ko'plab ishlar murakkab texnik bilimlarni talab qilmaydi (masalan, ofitsiant, haydovchi, sartarosh, telefon orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish); fuqarolar qisqa muddatli o'quv kurslar orqali tezda kasb egallab, daromad topishga kirishishi mumkin.

3. Yoshlar va ayollar uchun qulay: ayniqsa, ayollar va yoshlar xizmat ko'rsatish sohasida masofaviy ish, yarim stavkali ish, yoki o'z mahallasida xizmat ko'rsatish orqali ishlash imkoniga ega bo'ladi; bu ularni uyda o'tirgan holda daromadli faoliyat bilan shug'ullanishiga yordam beradi (masalan, tikuvchilik, bolalarni parvarish qilish, ijtimoiy tarmoqlar orqali marketing va reklama qilish xizmatlari).

Xulosa

Xizmat ko'rsatish sohasi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va kambag'allikni qisqartirishda strategik ahamiyatga ega. Ushbu sohani rivojlantirish orqali nafaqat yangi ish o'rinlari yaratiladi, balki aholining ijtimoiy himoyasi va hayot sifatini yaxshilash mumkin.

Davlat siyosatining samarali yuritilishi va innovatsiyalarni joriy etish bu jarayonlarni tezlashtiradi. [9:14]. Umuman olganda, O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan dasturlar va tashabbuslar samarali natijalarga erishmoqda.

Biroq, ushbu jarayonni yanada tezlashtirish va kengaytirish uchun hududiy va sektorlararo hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, raqamli texnologiyalarni kengroq joriy etish zarur.

Shunday qilib, xizmat ko'rsatish sohasi kambag'allikni kamaytirishning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasi kambag'allikni kamaytirishda- tezkor bandlikni ta'minlashi, minimal resurs bilan daromad olish imkonini berishi, ayollar va yoshlar uchun moslashuvchan sharoitlar yaratishi bilan eng samarali yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Uni yanada rivojlantirish uchun mahalliy o'quv markazlarini ko'paytirish, imtiyozli kreditlar va grantlar ajratish, raqamli xizmatlar (IT, onlayn savdo) bo'yicha imkoniyatlarni oshirish muhim hisoblanadi. [1: 46].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islomov, I. (2020). Xizmatlar marketingi. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Karimov, T. (2019). Ijtimoiy iqtisodiyot va kambag'allik. Toshkent: Iqtisodiyot.
3. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). O'zbekiston Respublikasining rivojlanish strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.
4. Muxitdinov, Sh. X. (2021). Qishloqda kommunal xizmat ko'rsatish sifatini AKTdan foydalanib oshirish (Dissertatsiya). Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali.
5. Mirzayeva, D., & Toshpulatov, A. (2019). Xizmat ko'rsatish sohasi menejmenti. Toshkent: Iqtisodiyot.
6. Qo'chqarov, O., & Maxmudov, M. (2020). Servis iqtisodiyoti. Toshkent: Iqtisodiyot.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021, 3-dekabr). Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida (PF-29-son farmon). <https://lex.uz>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021, 11-avgust). Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida (PF-6277-son farmon). <https://lex.uz>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021, 3-dekabr). Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida (PQ-31-son qaror). <https://lex.uz>
10. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi. (n.d.). Rasmiy axborotlar. www.mehnat.uz